

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA MOLIYA BOZORIDA RAQOBATNI HUQUQIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MASALALARI: QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro tijorat huquqi fakulteti magistranti

Abduaxatova Guzal Utkirjonovna

Email: guzalutkirjonovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Germaniyada moliya bozorida raqobatni tartibga solish mexanizmlari huquqiy nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. O‘zbekistonning bozor islohotlari jarayonida raqobatni qo‘llab-quvvatlashdagi yondashuvi va Germaniyaning rivojlangan raqobat qonunchiligi hamda nazorat tizimlari bilan taqqoslanadi. Maqolada moliya bozori ishtirokchilarining faoliyati, monopoliyaga qarshi nazorat hamda raqobatni qo‘llab-quvvatlashning ijobiy va salbiy ta’sirlari chuqur o‘rganiladi.

Shu jumladan, moliya bozorida raqobatni rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlik va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishda O‘zbekiston va Germaniyada asosiy vazifalari o‘rganiladi. Raqobatning rivojlanishi O‘zbekiston moliya sektorida sog‘lom muhit yaratishi, xalqaro investorlar va mahalliy bozor o‘rtasida barqaror aloqalarni mustahkamlash imkoniyatlari, O‘zbekiston Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘z qonunchiligiga tatbiq etish orqali, iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish, javobgarlikka tortish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Raqobat, moliya bozori, iqtisodiy konsentratsiya, ustun mavqeni suiiste’mol qilish, huquqiy qo‘llab-quvvatlash, monopoliyaga qarshi nazorat, O‘zbekiston, Germaniya, qiyosiy tahlil.

LEGAL SUPPORT FOR COMPETITION IN THE FINANCIAL MARKETS OF UZBEKISTAN AND GERMANY: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Tashkent State University of Law

Master’s Student in International Commercial Law

Abduaxatova Guzal Utkirjonovna

Email: guzalutkirjonovna@gmail.com

Annotation: This article provides a comparative analysis of the mechanisms for regulating competition in the financial markets of Uzbekistan and Germany from a legal perspective. It examines Uzbekistan's approach to supporting competition during the process of market reforms, comparing it to Germany's developed competition

legislation and oversight systems. The article delves into the activities of financial market participants, anti-monopoly oversight, and the positive and negative effects of supporting competition.

Additionally, it explores the main roles of Uzbekistan and Germany in fostering competition within the financial market, enhancing economic efficiency, and protecting consumer interests. The study discusses how the development of competition can create a healthy environment in Uzbekistan's financial sector, strengthen stable relationships between international investors and the local market, and considers the potential for Uzbekistan to reinforce its economic reforms by adopting the experiences of developed countries like Germany, including issues related to accountability.

Keywords: Competition, financial market, economic concentration, abuse of dominant position, legal support, anti-monopoly control, Uzbekistan, Germany, comparative analysis.

Raqobat siyosati iqtisodiyotning asosiy elementidir. Buning sababi shundaki, yaxshi ishlaydigan raqobat farovonlik, o'sish va bandlikni yaratishning kalitidir. Agar yaxshi ishlab chiqilgan bo'lsa, raqobat siyosati bozorlarni ochib beradi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi, resurslarni eng yaxshi natijaga erishish uchun taqsimlashni ta'minlaydi va iste'molchilarning suverenitetini mustahkamlaydi. Bundan kelib chiqadiki, moliya bozorida raqobatning qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotning muhim ahamiyatga ega sektorlari rivojlanishi uchun asos bo'ladi va ushbu sohalarda halol raqobatni ta'minlash orqali nafaqat raqobatchilar, balki iste'molchilarning ham huquqlarini kafolatlaydi. Moliya bozoridagi raqobat siyosatining asosiy vazifasi esa moliya bozoridagi xo'jalik yurituv subyektlari va shaxslar faoliyatida raqobatning iloji boricha kamroq cheklovlar bilan barqaror ishlashini ta'minlashdan iborat.

Moliya bozori haqida gap ketar ekan, moliya bozori keng tushuncha ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Moliya bozori keng ma'noli va ko'plab murakkab iqtisodiy toifalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, 2023-yil 3-iyul sanasidagi 850-sonli O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonunida ham moliya bozoriga quyidagicha ta'rif berilgan: "Moliya bozori bu banklar, kredit sug'urta va boshqa moliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy xizmatning, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari xizmatlarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomalasi doirasidir"¹. Ya'ni bundan tushinish mumkinki, moliya bozori bu moliya mablag'larini vaqtincha ishlatish yoki ularni sotib olish mumkin bo'lgan moliyaviy xizmatlar bozori².

¹ "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.07.2023-yildagi, O'RQ-850

² Moliya bozori: Darslik. J.R. Zaynalov, E.N. Xodjayeov, B.SH. Xusanov, N.X. Ruzibaeva va boshq. T.: Iqtisod-Moliya», 2020,-316 b.

Germaniya qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, moliya bozori tushunchasiga aniq bir ta’rif berilmagan, ammo moliya bozorining eng yirik institutlari sifatida tijorat bank tuzilmalari, kooperativ kredit institutlari va turli xil ijtimoiy-huquqiy kredit institutlari, shu jumladan eng katta ulushini omonat kassalari egallashi nazarda tutilgan³. Germaniyada XX-asr boshlarida moliya bozorini tartibga solish yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsada, moliya bozori institutlaridan biri bo‘lgan bank ishi qattiq tartibga solingan edi va Germaniya moliya bozorida davlat nazorat organi aralashmaslik siyosatini olib boruvchi davlatlar qatorida bo‘lgan⁴.

Hozirgi vaqtda moliyaviy bozor mohiyati haqida umumiy tushuncha yo‘q bo‘lsada, moliyaviy bozor bo‘yicha rus tilidagi darsliklarni va ilmiy maqolalarida, eng ko‘p keltiriladigan ta’rif Y.M.Mirkin tomonidan "Moliya bozorlarining inglizcha-ruscha izohli lug‘ati"da keltirilgan. U moliya bozorining uchta xususiyatini ajratib ko‘rsatadi: vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini moliyaviy vositachilar orqali qayta taqsimlash, moliyaviy vositalardan foydalanish va tovarlar bo‘lgan moliyaviy mahsulotlar shaklida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish⁵. Ingliz tilidagi adabiyotlarda moliya bozori asosan moliyalashtirish manbalari bozori sifatida qaraladi:

- a) uzoq muddatli moliyalashtirish uchun - kapital bozorlari;
- b) qisqa muddatli moliyalashtirish uchun (bir yilgacha bo‘lgan muddatga) - pul bozorlari;⁶

Raqobat tushunchasi esa xo‘jalik yurituvchi subyektlar va shaxslar bo‘lgan raqobatchilarning musobaqalashuvi ekanligi va ularning mustaqil harakatlari tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etishi yoki cheklashini nazarda tutilgan. O‘zbek tili izohli lug‘atida esa “raqobatga iqtisodiy ma’noda mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va foyda keltiradiga narxda sotish, umumiy ma’noda iqtisodiyotda o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun kurash”⁷ sifatida ta’rif berilgan. Bozor iqtisodiyotining bir mexanizmi sifatida raqobat korxonalar o‘z tovarlari va xizmatlarini iste’molchilarga eng qulay narxlarda taklif qilish sharoitini yaratadi.

Raqobatga bugungi kunga qadar bir qancha ta’riflar berilgan bo‘lib, Adam Smit uni “ko‘zga ko‘rinmas qo‘l” deb atagan edi. Iqtisodchi olimlar K.Xoliqov va R.Do‘sanovlarning fikricha, raqobat-iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z ehtiyoj va manfaatlarini maksimal qondirish, yaxshi daromad olish, bozorda o‘z mavqeyini

³https://spravochnick.ru/finansy/obschaya_harakteristika_finansovoy_sistemy_i_finansovogo_rynka_germanii/#finansovy-rynok-germanii

⁴ Lütz, Der Staat und die Globalisierung, pp. 79-89

⁵ Миркин Я. М., Миркин В. Я. Англо-русский толковый словарь по банковскому делу, инвестициям и финансовым рынкам. М.: Еврофинансы, Альпина, 2006. 424 с.

⁶ Majaski C. Money Market Vs. Capital Market: What's the Difference? URL: <https://www.investopedia.com/articles/investing/052313/financial-markets-capital-vs-money-markets.asp> (дата обращения: 17.01.2022).

⁷ Raqobat huquqi. Mualliflar jamoasi Darslik. -T.: TDYU nashriyoti, 2018. 189 bet.

mustahkamlash, imkoniyatlarini namoyon etish hamda imidjiga ega bo‘lish uchun kurashdan iborat jarayondir⁸.

Germaniya iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan Lyudvig Erxard (1897-1977) iqtisodiyotning ustuvorligi va erkinligini, shu jumladan raqobatni samarali davlat tomonidan himoya qilishni e‘tirof etgan. Germaniyada ijtimoiy bozor iqtisodiyoti modelining evolyutsiyasi Germaniya iqtisodiyoti faoliyatining ikkita asosiy tamoyilini shakllantirishga olib kelgan:

- 1) iqtisodiyotning barcha sohalarida erkin raqobat bo‘lishi kerak;
- 2) har bir shaxs o‘zi tanlagan xarajatlarni o‘z zimmasiga olishi kerak.

Erkin raqobatni e‘lon qilish monopoliyaga qarshi nazorat choralarini shakllantirish va davlat monopoliyalarining xususiy monopoliyaga o‘tishining oldini olishga asoslangan edi. Monopoliyaga qarshi tartibga solish konsepsiyasining shakllanishi 1945-yildagi Potsdam kelishuvi bilan boshlandi, unda raqobatga qarshi bitimlarni tugatish nazarda tutildi, uni ishlab chiqishda Germaniyada qonunchilik dasturi qabul qilindi.

Manbalarga ko‘ra moliya bozoriga kirish uchun to‘siqlar uzoq tarixdan beri raqobat uchun to‘siq sifatida tan olingan. Ko‘pgina mamlakatlarda moliyaviy bozorlardagi ko‘plab raqobatga qarshi to‘siqlar vaqt o‘tishi bilan olib tashlangan bo‘lsa-da, ba‘zi norasmiy to‘siqlar juda keng tarqalgan. Ko‘pgina moliyaviy tarmoqlarda yirik iqtisodlarning mavjudligi nisbatan katta doimiy xarajatlar tufayli yangi subyektlarning bozorga kirishlarga to‘sqinlik qilgan. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, tartibga soluvchi, buxgalteriya hisobi va huquqiy talablarning ko‘payishi (masalan, IFRS, Bazil II, Solvency II), yangi mahsulotlarni monopol yuqori narxi va boshqalar tufayli moliyaviy firmalarning optimal hajmi tobora ortib bormoqda. Ulgurji firmalarga qo‘shib yuborish va qo‘shib olish bo‘yicha maslahatlar, aksiya va obligatsiyalarni chiqarishni boshqarish, kompleks investitsiya mahsulotlarini qurish kabi muayyan xizmatlarni taqdim etish uchun xo‘jalik yurituv subyektlarining keng faoliyati ham zarur⁹. Moliya bozorida, shuningdek banklar avtomatik ishlov berish bo‘yicha texnik standartlarni ishlab chiqishda hamkorlik qilishlari lozim deb qaraladi, bu esa bozor samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Moliyaviy bozorlarda standartlashtirishning kamchiliklari bozorga yangi shaxslarni kirishda to‘siqlarning ko‘payishi, noqonuniy muvofiqlashtirish xavfi kuchaytiradi deb qaraladi.

Moliya bozorida raqobatni yumshatuvchi omil sifatida esa o‘zaro turli mulkchilik shakllarida bo‘lgan firmalar o‘rtasidagi bir-birining faoliyatida ulushga ega

⁸ Xoliqov K.O., Do‘sanov R.X. Raqobat nazariyasi, shakllari va usullari. Ilmiy risola. TermDU. “Moliya” kafedrası, 2009_B.6

⁹ “Measuring and explain competition on in the financial market” Jacob A. Bikker Laura Spierdijk Febrary 2009

bo'lishiga imkon berishi nazarda tutiladi. Moliyaviy institutlar o'rtasidagi bunday aloqalar AQShda kamroq, ammo Yevropa mamlakatlarida juda keng tarqalgan¹⁰.

Moliya bozorida raqobatni tadqiq qilgan olimlardan Stijn Claessens o'z tadqiqotida moliyaviy sektordagi raqobat bir necha sabablarga ko'ra muhim ekanligini ta'kidlagan. U o'z tadqiqotida moliya bozorida raqobatni rivojlanishi albatta bozor tuzilishiga, moliyaviy xizmatlar amalga oshirishning samaradorligi, moliyaviy xizmatlarning sifati va sektordagi innovatsiyalar darajasiga bog'liq ekanligiga urg'u bergan. Moliya sektorida raqobatning o'ziga xos jihati esa bu haddan tashqari raqobatning moliyaviy barqarorlikka hamda iqtisodiy o'sishga ijobiy va salbiy ta'sirini aniqlashda ekanligini ma'lum qilgan¹¹.

Ya'ni olim o'z tadqiqotida moliya bozorida raqobatning rivojlanishi ijobiy yoxud salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin ekanligiga urg'u berib, buni aniqlashda quyidagi savollarni tahlil qilish orqali javob topish mumkinligi ta'kidlagan. Misol uchun moliya bozorida raqobat rivojlanishi moliyaviy xizmatlar sifati oshishiga olib keladimi yoxud moliyaviy xizmat ko'rsatishda past narxini taklif etish foydalimi kabilar. Shu jumladan, imkoniyat darajasida, ayniqsa, kichikroq firmalar va kambag'al shaxslar uchun, yirik firmalar va boshqa agentlar uchun moliyalashtirishga kirish hajmi va xarajatlari katta raqobat bilan yaxshilanadimi yoki yo'qligini ko'rib chiqishni taklif etgan.

Moliya bozorida raqobat tartibga solinishining yana *o'ziga xos jihati* bu moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab moslashuvchanligi amalda cheklanganligidadir. Chunki, ularning o'rnini bosuvchi xizmatlar kam uchraydi. Bank jamg'armalari, investitsiya fondlari va hayotni sug'urtalash siyosati asosan cheklangan tarzda bir-birini to'ldiradi. Bunga sabab esa ularning xususiyatlari tavakkalchilik, likvidlik va soliqqa tortish nuqtai nazaridan sezilarli darajada farq qilishi va moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda ularning o'rnini bosuvchilar yo'qligidadir. Mintaqalararo raqobat ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi. Biroq, amalda transchegaraviy raqobat ko'pincha cheklangan, ayniqsa iste'molchilar uchun. Chet el banklarining kirishi yordam berishi mumkin, lekin amalda ko'pgina bozorlarda huquqiy tartibga solish va institutsional tuzilmalar, iste'molchilarning xohish-istaklari, milliy odatlar va boshqalardagi farqlar tufayli cheklanganligicha qolmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, savdo va harakat obyektini bo'lgan kreditlar, xorijiy valyuta va sug'urta polislari, qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga olgan moliya bozori mavjud iqtisodiy va ijtimoiy qonuniyatlar asosida faoliyat yuritadi. Moliya bozori ishtirokchilarining asosiy xususiyati bu bozor subyektlarining moddiy

¹⁰ "How Does Competition Affect Bank Lending? Quasi-Experimental Evidence from Bank Mergers", Jack Liebersohn* December 2, 2017

¹¹ Stijn Claessens "Competition in the Financial Sector: Overview of Competition Policies" 2009y.

manfaatdorligidadir. Ya'ni moliya bozori subyektlari bo'sh turgan mablag'ga ega bo'lgan va ularni to'liq saqlash bilan birga ko'paytirishni istovchi jismoniy shaxslar, davlat, turli mulkchilik shakllari o'z ichiga oladi.

Moliya bozorlarining faoliyatini samarali tashkil qilishda esa iqtisodiy tizim barqarorligi, moliya tizimining erkinligi va eng asosiysi raqobat muhitining ta'minlanganligi muhimdir. Moliya bozorini samarali faoliyat ko'rsatadi deb hisoblashga esa samarali mulkchilik tizimi, investitsiya uchun mo'ljallangan yetarli jamg'armalar va huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan moliyaviy instrumentlar, raqobatdoshlik mavjud bo'lishini taqozo etadi. Ya'ni moliya bozorida raqobat bo'lishi, ushbu bozor taraqqiyotida xo'jalik yurituv subyektlari faoliyatining ajralmas qismi desa ham bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, moliya bozorida raqobatni rivojlanishi moliyaviy xizmatlarni yaxshilanishi va iste'molchilarga qulay narxlar taqdim etish kabi ijobiy natijalarga sabab bo'ladi. Ammo olimlar fikriga ko'ra, moliya bozorida raqobat bazan salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqobatning moliya bozoriga ta'sirini aniqlashda, raqobatni ta'sirini o'lchash mexanizmlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston va Germaniya moliya bozorida raqobatni tartibga solishda bir necha o'xshashlik va farqlar mavjud. Misol uchun ikki davlat qonunchiligida ham moliya bozorida raqobatni tartibga soluvchi yagona qonun bo'lmasada, bu sohani tartibga solish O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonuni va Germaniya "Raqobatni cheklashga qarshi" qonuni kabi boshqa maxsus raqobatga oid qonunlar bilan amalga oshiriladi. Shu jumladan, sug'urta, bank va kredit tashkilotlari, qimmatli qog'ozlar bozori tog'risidagi normativ hujjatlarida ham raqobat masalalari yoritib o'tilgan.

Ammo, Germaniya moliya bozori ishtirokchilari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan farqli ravishda, raqobat masalalari kengroq yoritilganligi, ushbu davlat qonunchiligini qiyosiy tahlilini qilish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirishni ahamiyatini oshiradi. Germaniya Yevropa Ittifoqiga a'zo ekanligi, uni o'z qonunchiligini mazkur Ittifoq shartnomalariga moslashtirish majburiyatini olganligini anglatadi. Shu sababli Germaniya moliya bozorida raqobatni tartibga solishda Yevropa Ittifoqi maxsus shartnomalari hamda maxsus direktivalarini ham inobatga olinishi, ikki davlat qonunchiligining farqli jihatidan hisoblanadi.

O'zbekiston va Germaniya moliya bozorida raqobatni huquqiy qo'llab-quvvatlash usullarida o'xshashliklar mavjud bo'lib, buni ikki davlat qonunchiligi ham raqobatga qarshi nohalol harakatlar sifatida ustun mavqe va ustun muzokara kuchini, insofsiz raqobatni, davlat organlarining muvofiqlashtirilgan harakatlari va kartel kelishuvlarini cheklashda ko'rish mumkin. Shuningdek, raqobatni ta'minlash

maqsadida ikki davlatda ham iqtisodiy konsentratsiya tartibga solingan va monopoliyaga qarshi komplayens tizimlari joriy etilgan.

Moliya bozorida raqobatni ta'minlash tartib-taomillariga to'xtaladigan bo'lsak, raqobatni cheklaydigan harakatlarni aniqlash tartibi ikki davlat qonunchiligidan ham aks etgan. Moliya bozorida raqobatni qo'llab-quvvatlashda Germaniya modelining farqli jihati bu Germaniya raqobat bo'yicha asosiy qonuni "Raqobatni cheklashga qarshi" qonuning mukammalligidadir. Chunki mazkur qonunda, ustun mavqe va kartel kelishuvlarini, xo'jalik yurituv subyektlarini qo'shib olish va qo'shib yuborishning raqobatga ta'sirini aniqlash tartibi, javobgarlikdan ozod qilishda ahamiyatga ega faktorlarni aniqlash tartibi mujassamdir. O'zbekistonda esa raqobat to'g'risidagi qonunida faqat ushbu tushunchalar berilgan bo'lib, ularni aniqlash va ro'yxatini yuritish tartibi alohida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tartibga solinadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi raqobat qonunchiligi moliya bozorida raqobatni tartibga solishda o'rnini kuchaytirish va takomillashtirishda Germaniya modelini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqini himoya qilish qo'mitasi asosiy organ sifatida faoliyat yuritadi. Yuqorida sanab o'tilgan qo'mita tarkibidagi boshqarma va bo'linmalar iqtisodiy konsentratsiyani aniqlash, iste'molchilar huquqini himoya qilish, kartel kelishuvlari va muvofiqlashtirilgan harakatlarni aniqlash hamda monopoliyaga qarshi narxlar va ta'riflarni ustidan nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Qo'mita o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Germaniyada esa Iqtisodiy ishlar va iqlim vazirligi asosiy vakolatli organ bo'lib, unga bo'ysunuvchi Federal Kartel idorasi va Monopoliyaga qarshi komissiyasi raqobat sohasini tartibga soladi. Jumladan, Federal Kartel idorasi Germaniyada moliya bozori ishtirokchilarining raqobatga qarshi harakatlarini aniqlash va jazolash choralarini ko'radi, shuningdek, Federal moliyaviy nazorat organi bilan hamkorlik qiladi¹². Monopoliyaga qarshi komissiyasi esa asosiy tadqiqotlarini tovar va moliya bozoridagi korporativ konsentratsiyalar holatini iqtisodiyot va raqobatga ta'sirini o'rganishga bag'ishlaydi va ikki yillik hisobotlar qabul qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Germaniya moliya bozorida raqobatni tartibga solishga vakolatli organlarning vazifalari aniq-ravshan qilib bayon etilgan bo'lib, bu sohani tartibga solishni yengillashtiradi. Shu jumladan, Federal kartel idorasida kartel kelishuvlari yoxud muvofiqlashtirilgan harakat sodir etgan subyektlar uchun javobgarlikni tayinlash va ta'sir choralarini kamaytirish, yumshatish vakolatining mavjud ekanligi ham moliya bozorida raqobatni rivojlanishiga yordam beradi¹³. Germaniya moliya bozorida

¹² <https://www.gesetze-im-internet.de/gwb/BJNR252110998.html>

¹³ https://www.bundeskartellamt.de/EN/Tasks/Cartels/Cartels_node.html

vakolatli organlarning tuzilishi hamda faoliyatini o'rganish va O'zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlanitirish organlari faoliyatiga tatbiq etish, raqobatni cheklovchi harakatlar sonini kamaytishga va vakolatli organ faoliyatini tizimli tashkil etishga hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi raqobat qonunchiligida raqobatni cheklaydigan va raqobatga zid harakatlar ro'yxati keltirilgan va taqiqlangan bo'lib, ushbu amaliyotlarni moliya bozori subyektlari tomonidan amalga oshirishga raqobat qonunchiligini buzish sifatida qaraladi va qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunga qadar 323 nafar raqobatni buzuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar ro'yhatga olingan bo'lib, bunda moliya bozori subyekti hisoblangan bank tashkilotlari tanlov savdosi jarayonida o'z ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishi yoxud mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim xo'jalik yurituv subyektlariga nisbatan afzal imtiyoz va preferensiyalar taqdim etib, raqobat qonunchiligini buzilishiga sabab bo'lganiga ko'rishimiz mumkin.

Germaniya moliya bozorida raqobat qonunchiligini buzish tushunchasi adolatli raqobat tamoyillarini buzadigan va bozorning to'g'ri ishlashiga putur etkazadigan harakatlar yoki amaliyotlarni anglatadi. Germaniyada "Raqobatni cheklashga qarshi" qonun raqobatga qarshi xatti-harakatlar ro'yxatini va ushbu harakatlarga qarshi kurashish uchun huquqiy asosni taqdim etadi. Germaniyada "Raqobatni cheklashga qarshi" qonuni raqobatga qarshi kelishuvlarni, ustunlikni suiiste'mol qilishni va adolatsiz raqobat amaliyotlarini taqiqlaydi.

Raqobat to'g'risidagi qonunning buzilishi turli xil raqobatga qarshi xatti-harakatlar orqali sodir bo'lishi mumkin. Masalan, "Raqobatni cheklashga qarshi" qonunning 1-bo'lim, 1-bobi 1-moddasi Raqobatni cheklovchi bitimlarni taqiqlaydi. Unga ko'ra, "Raqobatning oldini olish, cheklash yoki buzish maqsadi yoki ta'siriga ega bo'lgan kompaniyalar o'rtasidagi kelishuvlar, kompaniyalar birlashmalarining qarorlari va kelishilgan xatti-harakatlar taqiqlanadi"¹⁴. Shu jumladan raqobatchilar o'rtasida narxlarni belgilash, bozorlarni taqsimlash, takliflarni buzish yoki ishlab chiqarishni cheklashga qaratilgan kelishuvlar yoki kelishilgan amaliyotlarni o'z ichiga olgan kartel kelishuvlari ham taqiqlanadi. Ya'ni ushbu taqiqlangan va raqobatga zid harakatlarni moliya bozori subyektlari tomonidan amalga oshirish Germaniya raqobat qonunchiligini buzilishiga sabab bo'ladi. Faqatgin istisno tarzda raqobatchi kompaniyalar o'rtasidagi kelishuvlar va kompaniyalar birlashmalarining kompaniyalararo hamkorlik orqali iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari natijasida bozorda raqobat sezilarli darajada buzilmaydi va kelishuv yoki qaror kichik yoki o'rta korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi, deb hisoblansa javobgarlikdan ozod qilinadi.

¹⁴ Gesetz gegen Wettbewerbsbeschränkungen. 26.06.2013

<https://www.gesetze-im-internet.de/gwb/BJNR252110998.html>

Xalqaro moliya bozorida raqobatni buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan holatlardan biri 2012-yilda sodir bo‘lgan “LIBOR mojarosi” hisoblanadi. Ushbu holat global miqyosda turli moliyaviy xizmatlar uchun ma‘lumotnoma sifatida ishlatiladigan benchmark foiz stavkasi – London banklararo taklif stavkasini manipulyatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, 2012-yilda fosh bo‘lgan va Barclays, UBS va Deutsche Bank kabi bir qancha yirik banklar ishtirok etgan. LIBOR ishi bo‘yicha moliya bozorida raqobatning buzilishi, birinchi navbatda, ishtirokchi banklar tomonidan LIBOR stavkalarini til biriktirish va manipulyatsiya qilish orqali amalga oshirilgan. Manipulyatsiya LIBOR stavkalarini hisoblaydigan panelga noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma‘lumotlarni taqdim etish orqali amalga oshirilgan va bu esa sun‘iy ravishda oshirilgan yoki pasaytirilgan stavkalarga olib kelgan. Mazkur muammoli holatda, ishtirokchi banklar o‘rtasida moliya bozorida taqiqlangan raqobatga qarshi kelishuv tuzilgan deb topilgan¹⁵.

Germaniya moliya bozorida raqobatni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik asoslari Germaniya Jinoyat kodeksining “Raqobatga qarshi jinoyatlar” deb nomlanuvchi 26-bo‘limida o‘z aksini topgan. Jumladan 298-moddasida narxlarni belgilash va bozorni taqsimlash bo‘yicha kelishuvlar, shuningdek raqobatchilar o‘rtasidagi gorizontaal kelishuvlarga ham, yetkazib berish zanjirining turli darajalarida kompaniyalar o‘rtasidagi vertikal shartnomalar tuzish jinoyat deb etirof etiladi. 299-moddasida esa tovar va moliya bozorida insofsiz raqobat, turli xil adolatsiz raqobat amaliyotlariga, jumladan, yolg‘on yoki chalg‘ituvchi reklama, mulkdorning ruhsatisiz uchinchi shaxslar tomonidan ularning obro‘sidan nohaq foydalanish va iste‘molchilarni aldashga qaratilgan harakatlar jinoyat deb belgilanib javobgarlikka tortiladi.

Yuqoridagi tahlillarga asosan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston va Germaniya moliya bozorida raqobatni tartibga solishning huquqiy tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbekiston va Germaniya moliya bozorida raqobatga qarshi qonun hujjatlarini buzish tushunchasi va turlari bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Ikki davlat qonunchiligida ham raqobatga zid harakatlar sifatida ustun mavqe va ustun muzokara kuchini suiiste‘mol qilish, insofsiz raqobat amaliyotlarini amalga oshirish yoxud raqobatga zid kelishuvlar tuzish va boshqalar belgilangan bo‘lib, ularni amalga oshirish taqiqlanadi. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik esa raqobat qonunchiligini buzish sifatida etirof etilib, qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Moliya bozorida raqobat qonunchiligini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya qonunchiligida fuqarolik huquqiy javobgarlik, ma‘muriy ta‘sir choralari qo‘llash va jinoiy jaborgarlik tayinlash tartibi ham bayon etilgan. Xususan, iste‘molchilar va ishtirokchilarning raqobat qonunchiligi buzilishi natijasida ko‘rgan zararini va olishi mumkin bo‘lgan foydani hisoblash hamda undirish tartibi fuqarolik huquqi asoslari bilan belgilangan. Shu sababli, O‘zbekiston moliya bozorida raqobatni

¹⁵ <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=14767113-9d8b-46bb-83e2-af237d333b58>

qo'llab-quvvatlash islohotlarini davom ettirish jarayonda Germaniya tajribasidan o'rganayotgani mamlakat moliya tizimining rivojlanishiga yordam beradi. Germaniyaning mustahkam raqobat huquqi va moliya sektorida yuqori sifatli nazorat O'zbekistonda ham bozor ishtirokchilarining teng huquqlarini ta'minlash uchun yaxshi o'rnak bo'la oladi.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qabul qilingan sana 30.04.2023, kuchga kirish sanasi 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>

1.2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, <https://lex.uz/acts/-111189>

1.3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, <https://lex.uz/docs/-111453>

1.4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-97664>

1.5. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni, 03.07.2023-yildagi, O'RQ-850, <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>

1.6. Gesetz gegen Wettbewerbsbeschränkungen. 26.06.2013 <https://www.gesetze-im-internet.de/gwb/BJNR252110998.html>

1.7. Gesetz gegen den unlauteren Wettbewerb https://www.gesetze-im-internet.de/uwg_2004/BJNR141400004.html

1.8 Umwandlungsgesetz. 01.01.1995. <https://www.buzer.de/UmwG.htm>

Adabiyotlar/References

1. Moliya bozori: Darslik. J.R. Zaynalov, E.N. Xodjayev, B.SH. Xusanov, N.X. Ruzibaeva va boshq. T.: Iqtisod-Moliya», 2020,-316 b.
2. Миркин Я. М., Миркин В. Я. Англо-русский толковый словарь по банковскому делу, инвестициям и финансовым рынкам. М.: Еврофинансы, Альпина, 2006. 424.
3. Majaski C. Money Market Vs. Capital Market: What's the Difference?
4. Raqobat huquqi. Mualliflar jamoasi Darslik. -T.: TDYU nashriyoti, 2018. 189 bet.
5. Xoliqov K.O., Do'sanov R.X. Raqobat nazariyasi, shakllari va usullari. Ilmiy risola. TermDU. "Moliya" kafedrasi, 2009_B.6
6. "Measuring and explain competition on in the financial market" Jacob A. Bikker Laura Spierdijk February 2009.
7. How Does Competition Affect Bank Lending? Quasi-Experimental Evidence from Bank Mergers ", Jack Liebersohn* December 2, 2017
8. Stijn Claessens "Competition in the Financial Sector: Overview of Competition Policies" 2009y.